

O'ZBEK MUSIQA AMALIYOTIDA QO'LLANILUVCHI DOIRA USULLARI HAQIDA



Nodir Baxtiyarovich Zakirov

Maqom cholg'u ijrochiligi kafedrası o'qituvchisi
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-15>

Annotatsiya: Xalq cholg'ularining eng keksa, eng noyob turi hisoblanmish doira xalqimizning turmushi va mehnat faoliyatiga singib, insonlar hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Doira cholg'usi ijrosini xuddi baxshilar aytadigan dostonlarga o'xshatish mumkin. Chunki ijro paytida improvizatsiyaga keng o'rin beriladi. Sozanda davra ruhiyatiga qarab usullar ijro etadi. Doira cholg'usining ijro imkoniyati hamda unda ijro etiluvchi usullarning rang-barangligi tinglovchini o'ziga jalb etadi. Ushbu maqolada doira usullari va ularning o'ziga xos jihatlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: doira, marosim, usul, Shashmaqom, ansambl, xalq, musiqa san'ati.

Аннотация: Дойра, считающаяся древнейшим и уникальным видом народных инструментов, глубоко проникла в быт и трудовую деятельность нашего народа, став неотъемлемой частью жизни людей. Исполнение на дойре можно сравнить с эпосами, исполняемыми сказителями-бахши. Это связано с тем, что во время исполнения широко используется импровизация. Музыкант исполняет ритмические приемы в соответствии с настроением собравшихся. Исполнительские возможности дойры и разнообразие исполняемых на ней ритмических приемов привлекают слушателя. В данной статье научно проанализированы ритмические приемы дойры и их особенности.

Ключевые слова: дойра, обряд, усуль, Шашмаком, ансамбль, народ, музыкальное искусство.

Abstract: The doira, considered the most ancient and unique type of folk instrument, has deeply penetrated the daily life and labor activities of our people, becoming an integral part of their lives. Doira performance can be compared to epics recited by bakhshi storytellers. This is due to the extensive use of improvisation during performances. The musician executes rhythmic techniques in accordance with the mood of the gathered audience. The performance capabilities of the doira and the variety of rhythmic techniques played on it captivate the listener. This article provides a scientific analysis of the doira's rhythmic techniques and their distinctive features.

Keywords: doira, ritual, usul, Shashmaqom, ensemble, folk, musical art.

Musiqa merosimizning avlodlardan-avlodlarga o'tib kelishi, har bir musiqiy namunalarning mazmun-mohiyatiga qarab turlanishi hamda zamonaga xos talqin qilib borilishi ham insoniyat kamoloti yo'lida olib borilgan amallarning bir ko'rinishi desak to'g'ri bo'ladi. Zero, musiqiy merosga ijodkorona yondashish, ularni qadriyatgan negizida o'zlashtirish, zamon ruhiyati bilan uyg'unlashtirish va barkamol avlodning tafakkuriga mos talqiniga erishish bu mezonning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Doira o'zbek milliy san'atida o'z o'rniga ega cholg'ulardan biri hisoblanadi Xalqimizning xursandchilik kunlarida, jumladan, to'y-xashamlarda, shodiyona kunlarda, turli xil ommaviy bayram va tomoshalarda albatta doira cholg'usiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Doira orkestr va ansambllarda, shuningdek, o'zbek milliy raqs san'atida ham asosiy vazifalardan sanaladi. O'z

navbatida milliy merosimiz hisoblanmish “Shashmaqom” ham doira usullarisiz ijro etilmaydi. Buning sababi, milliy musiqamizda usul va ritmning o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligidandir.

Doiraning sho‘xchan sadolariga, usullarining jozibasiga maftun bo‘lmagan inson topilmasa kerak. Hozirgi vaqtga qadar doira usullarining bir qancha namunalari yaratilgan, davrlar osha bu usullar yanada jilolanib kelmoqda. Usullar davrning ijtimoiy rivoji bilan birgalikda xalq ma‘naviyati, madaniyatiga xizmat qilgan. Taraqqiyot rivojini e‘tiborga olgan holda turli usullar ijod etilib, ijrochilik amaliyotida keng qo‘llanilgan. Buning natijasida o‘ziga xos, rang-barang usullar yuzaga kelgan. Hozirgi kunda o‘zbek musiqa ijrochiligida bir qancha doira usullari qo‘llaniladi.

Xalq musiqa ijrochilik amaliyotida qo‘llaniluvchi usullarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin: - oddiy usullar: ijro jihatidan unchalik murakkab bo‘lmagan, asosan, an‘anaviy marosimlarda, qo‘shiq va laparlarda qo‘llaniladi; - maqsadli usullar: ommani jalb etish, to‘plash, diqqatni qaratish kabi muayyan ma‘noga ega bo‘lgan chaqiriq usullari; - murakkab usullar: ya‘ni xalq mumtoz musiqa ijodiyotida qo‘llaniladigan usullar.

Yuqorida ta‘rifi keltirilgan, unchalik murakkab bo‘lmagan oddiy usullar har bir xalqning milliy an‘analaridan kelib chiqqan holda yuzaga kelgan. Jumladan “Yor-yor”, “Nog‘ora bayot” kabilar shular jumlasidandir.

Maqsadli usullar ommaviy bayramlarda, xalq sayillarida tomoshalar boshlanishidan oldin xalq e‘tiborini jalb qilish, ularni bir joyga yig‘ish maqsadida ijro etilgan.

Murakkab usullar esa maqom san‘atida qo‘llaniladi. Mumtoz musiqamizda ijro etiluvchi usullarning barchasi mukammal bo‘lgani uchun ularni murakkab usullar turkumiga kiritishni lozim topdik.

Xalq cholg‘ularining eng keksa, eng noyob turi hisoblanmish doira xalqimizning turmushi va mehnat faoliyatiga singib, insonlar hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Doira cholg‘usi ijrosini xuddi baxshilar aytadigan dostonlarga o‘xshatish mumkin. Chunki ijro paytida improvizatsiyaga keng o‘rin beriladi. Sozanda davra ruhiyatiga qarab usullar ijro etadi. Doira cholg‘usining ijro imkoniyati hamda unda ijro etiluvchi usullarning rang-barangligi tinglovchini o‘ziga jalb etadi. Birgina to‘y marosimlarida karnay va surnayga jo‘r bo‘luvchi doira usullarining o‘zi xilma-xildir. Masalan, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq beshik to‘yida o‘ziga xos uslub mardona, shiddatkor bo‘lsa, nikoh to‘yidagi qiz uzatilayotgan paytda ijro etiluvchi yor-yoru, o‘lanlarda doiraning mahzun sadosiga guvoh bo‘lasiz. O‘quv qo‘llanmaning “Xalq ommaviy usullari” bo‘limida qadimdan xalqimizning xursandchilik kunlarida, xususan, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi kabi marosimlarida ijro etiluvchi doira usullarining nomlari, ularning ijrodagi bir necha variantlari keltirilgan. Jumladan, “Bolamast”, “Amma-xola pul tashlang”, “To‘ylar muborak”, shuningdek, “Yor-yor”, uning surnay yo‘lidagi ijro varianti, “Samarqandcha yor-yor”, “Alla bolam”, dor o‘yinlari vaqtida ijro etiluvchi “Dorboz” usullarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bulardan tashqari, mazkur bo‘limda xalqimiz madaniy hayotiga chuqur singib ketgan milliy kuylarimiz, ustoz bastakorlar tomonidan ijod etilib, hozirda klassikaga aylangan musiqiy asarlarning doira usullari bir necha variantlarda notaga tushirilgan. “Kuygay”, “Tanovor”, “Keldimu”, “Munojot”, “Qarg‘alar”, “Farg‘onacha rez” kabilar shular jumlasidandir. Ushbu bo‘limdan Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan “Qo‘qoncha”, qadimda harbiy yurishlar, askarlarning mashg‘ulot paytida ijro etilgan “Sarboz”, shu bilan birgalikda, “Shodiyona”, “Doira raqsga chorlaydi”, musiqa amaliyotida keng qo‘llaniluvchi, ko‘pchilikka nomlari tanish bo‘lgan “Ufori”, “Duchava” usullari ham joy olgan.

Ma‘lumki, o‘zbek raqs san‘ati ham milliy musiqamiz singari aniq ritm (usul)ga asoslanadi va raqs harakatlari ritm o‘zgarishi asosida tizimga solinadi. Ijro paytida raqs ijrochilari faqat usul (ritm)larning soni va tarkibiga ko‘ra o‘z harakatlarini amalga oshiradilar.

Doira usullari va raqs harakatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Har bir usulga mos raqs harakatlarining ishlab chiqilganligi yoki aksincha, har bir raqs harakatiga uyg‘un tarzda doira usullarining yaratilganligi fikrimizga isbot bo‘ladi. O‘z davrida ana shunday buyuk ishni amalga oshirgan O‘zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilovni eslamaslikning iloji yo‘q. Usta Olim Komilov nafaqat doira san‘atida, balki milliy raqslar bo‘yicha ham yangi usullarni

ijod qilib, o'zbek milliy raqs san'atiga poydevor qo'ydi. Ma'lumotlarga ko'ra, Usta Olim ota yuzdan ortiq usullarni yodida saqlagan. Ularning yarmi o'z ijodiga mansub.

Piri ustozimiz Usta Olim Komilov 1931–1934-yillar oralig'ida xalq tomonidan yaratilgan doira usullarini to'plashga e'tibor qaratdi. Bu usullarning ko'plari o'sha davrda unutila boshlagan, Usta Olim ota esa ularni bolalik chog'larida to'ylandagina eshitgan edi. Usta Olim bu ishda yordam so'rab o'zining keksa ustози Masaid otaga hamda Farg'ona vodiysidagi mashhur Yusufjon qiziqqa murojaat qiladi. Natijada Usta Olim juda ko'p xalq usullarini to'pladi. Bu usullarning har birining o'z nomi bor. Ana shu boy materiallar asosida Usta Olim Komilov bir qancha doira asarlari hamda raqs usullarini yaratdi.

Doirachilar orasida “Qo'sh qars” nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur asar o'zbek milliy raqs maktablaridagi raqs usullarining asosini ham tashkil etadi.

Ushbu usullarni ijro etish vositasi bo'lgan doira ijrochiligidagi ham hududlarga xos ijro uslublari shakllangan. “Qo'sh qars” darsligi XX asrning 20-yillarida turkum ko'rinishda ijro etilgan bo'lib, ikki (qo'shaloq) zarb ma'nosini anglatadi. 1928-yilda O'zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilov tomonidan jamlanib, bir butun asar holiga keltirilgan. Asarning “Qo'sh qars” deb nomlanishiga doira cholg'usida sozandaning ikkala qo'lda ijro etishi asos bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, doiradagi ikkita asosiy zarb: “bum” va “bak” usullarini ham bu nomlanishga asos qilib keltirish mumkin. Ustoz doirachilar “Qo'sh qars”ni doira ijrochiligidagi usullarning asosi, hech bir usulni o'zgartirib bo'lmaydigan, biror usul qo'shib yoki olib bo'lmaydigan mukammal asar deb ta'riflashgan. Haqiqatdan ham bu asardagi doira usullari shu qadar mahorat bilan, mantiqiy ketma-ketlikda, ta'bir joiz bo'lsa, marjondek terilgan bo'lib, oddiylikdan murakkablikka qadar rivojlanib boradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, mazkur asardagi har bir doira usulining raqs harakati va ularning o'z nomi mavjud.

Bir necha asrlardan beri o'zining betakrorligini yo'qotmay, ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho musiqiy boyligimiz “Shashmaqom”ning eng zarur unsurlaridan biri ham doira usullaridir. Maqom yo'llaridagi cholg'u va ashula bo'limining xarakterli tomonlarini ochib berishda doira usullari hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Maqomlarning tarkibida bo'lgan anchagina kuy va ashulalar variatsiya yo'li bilan ishlangan. Bunda esa doira usullari muhim rol o'ynaydi.

Masalan, ma'lum maqom tarkibida otdosh sho'ba (jumladan, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Ufari Ushshoq kabi)lar doira usulining turlicha bo'lishi bilan bir-biridan farqlanadi. Maqomlar ashula bo'limida esa, doira usulidan tashqari she'r o'lchovlari ham maqom qismlarining xarakterini belgilab beruvchi omillardandir. Chunki olti maqomning bir xil nom bilan ataluvchi sho'ba yoki qismlarida doira usuli va she'r o'lchovlari o'xshashdir.

Maqom cholg'u kuylarini ijro etishning ikki asosiy ko'rinishi: yakkanavoz (yakka cholg'uda) va ansambl (dasta) shakllari yuzaga kelgan. Bunda torli-chertma cholg'u hisoblanmish tanbur yetakchi cholg'u sifatida kasbiy musiqachilar orasida keng qo'llaniladi. Doira esa zarb usullarini sadolantirishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, maqom cholg'u kuylarini g'ijjak, dutor, nay, rubob, qo'shnay kabi cholg'ular jo'rligida yakka holda ijro etish mumkin. Ansambl ijrochiligi tarkibida esa tanbur va doira qatoriga yana dutor, nay, qo'shnay, g'ijjak, chang, qonun, ud, rubob kabi cholg'ular qo'shilishi mumkin. Buxoro musiqa amaliyotida tanbur, nay va doira cholg'ularidan iborat cholg'u ansambli ommalashgan.

Maqomlarning cholg'u bo'limidagi kuy yo'llarining doira usullari turli-tuman va juda murakkabdir. Cholg'u bo'limdagi kuy yo'llari ko'pincha shu doira usullari nomi bilan ham ataladi.

Ushbu qo'llanmaning “Maqom usullarining nomlari” bo'limida mumtoz musiqamizda ijro etiluvchi doira usullari va ularning nomlanishiga e'tibor qaratdik. Maqom asarlaridagi doira usullari o'zining murakkabligi, hajm jihatdan yirikligi bilan boshqalaridan farq qiladi. “Shashmaqom” murakkab doira usullaridan tarkib topganligidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, undagi usullarni ijro etishda ularning ohang tizimini bilish muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Faqatgina usulni yodlashning o'zi kifoya qilmaydi. Xorazm maqomlarini to'plab, nashr ettirgan olim Matniyoz Yusupov ham o'z kitobida doira cholg'usining bu vohadagi taraqqiyoti haqida yozib qoldirgan: “Doirachi juda usta, faqat usulni chalibgina qolmasdan, kuyni ham yaxshi bilishi

kerak. Chunki u sozandalar bilan ashulachilarni birlashtiruvchi dirijor vazifasini bajaradi". "Shashmaqom"ning "Mushkilot" cholg'u bo'limlari "Tasnif" nomli kuylar bilan boshlanadi. Bu atama olti maqomning har biriga qo'shib, "Tasnifi Buzruk", "Tasnifi Rost", "Tasnifi Navo", "Tasnifi Dugoh", "Tasnifi Segoh" va "Tasnifi Iroq" kabi ataladi. Tasniflarda odatda, 2/4 o'lchov ritmida bo'lgan doira usuli vazmin ijro etiladi. "Tasnifi Rost", "Tasnifi Dugoh", "Tasnifi Segoh" va "Tasnifi Iroq"da turlicha qisqartirilgan (ixchamlashtirilgan) shakllari qo'llaniladi. "Mushkilot"ning "Tasnif"dan so'ng keladigan qismi "Tarje" deb nomlanadi. "Tarje" so'zi arabchada "qaytarish", "takrorlash" ma'nolarini anglatadi. Ushbu qismdagi doira usuli "Tasnif" bilan bir xil bo'lib, faqat biroz tezroq sur'atda ijro etiladi. "Tarje"lar, "Tasnif"lardan farqli o'laroq, ko'tarinki kayfiyat va shodlik tuyg'ularini ifodalaydi. "Tarjei Navo" kuyi fikrimizga misol bo'ladi. "Tarje"lar ham "Tasnif"lar singari maqomlarning nomlariga qo'shib ("Tarjei Buzruk", "Tarjei Navo", "Tarjei Dugoh", "Tarjei Segoh", "Tarjei Iroq" kabi) o'qiladi. Ammo "Rost" maqomida Tarje nomli kuy qismi uchramaydi. "Gardun" nomi bilan yuritiladigan cholg'u kuylari Mushkilot bo'limining uchinchi tarkibiy qismi bo'lib, odatda, "Tasnif" va "Tarje"lardan so'ng ijro etiladi. Uning nomi ham asosiy maqomlar bilan qo'shib, "Garduni Buzruk", "Garduni Rost", "Garduni Navo", "Garduni Dugoh", "Garduni Segoh" kabi ataladi. "Iroq" maqomida esa "Gardun" kuyi uchramaydi. Shuni aytish kerakki, "Gardun" atamasining lug'aviy ma'nosi "falak gardishi", "qismat" ma'nolarini anglatga-da, maqomlar matnida muayyan doira usulni ham anglatadi. Bu usul avvalgi qismlardan o'zining murakkab o'lchov-ritmi va shakl ko'rinishlari bilan farq qiladi. "Muxammas" nomli cholg'u kuylari "Gardun"lardan so'ng ijro etiladi. "Muxammas" atamasining lug'aviy ma'nosi "beshlik" yoki "beshlangan" ma'nosini bildiradi. U maqomlar tizimida beshta tarkibiy qismdan iborat murakkab doira usulini anglatadi. Bu usulning hajmi 2/4 o'lchovida 16 taktga, 4/4 o'lchovida esa 8 taktga teng keladi. "Shashmaqom"ning "Mushkilot" bo'limlari "Saql" nomli cholg'u kuylari bilan yakunlanadi. Ushbu atama arabcha bo'lib, "og'ir", "vazmin" ma'nolarni bildiradi. "Saql"larda qo'llaniladigan doira usuli "Mushkilot" bo'limida uchraydigan eng murakkab va davomli usullardan hisoblanadi. U 2/4 o'lchovda, umumiy hajmi 24 takttni tashkil etadi.

Shashmaqom tarkibidagi qismlarni tushunish uchun ularning murakkab doira usullarini ajratish, shu usul jo'rligida eshita olish lozim. Oddiy xalq kuylarida usul bilan kuyni birgalikda tinglash maqomdagi kabi murakkab emas.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'z davrida O'zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni, piri ustozimiz Usta Olim Komilov sa'y-harakatlari hamda izlanishlari natijasida ko'plab doira usullari to'planib, kelajak avlodga yetkazilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ba'zi usullarning nomlari unutilgan va ijro amaliyotida qo'llanmayapti. Ayrim usullar hamon ijrochilikda keng qo'llanilsa-da, ularning nomlari bizgacha yetib kelmagan.

Bugungi kunda doira usullarini notaga tushirishda o'zbek musiqa amaliyotining turli yo'nalishlarida ijro etiluvchi usullarni qamrab olishga, ularning o'ziga xos tarzda nomlanganligiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Bu esa bo'lajak doirachilarning bilim saviyasi, ijrochilikdagi mahoratlarini yanada oshirishda va doira usullari bilan bog'liq ma'lumotlarni boyitishda kerakli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Doiraning zarblari" O'zbekcha usullar to'plami T.; 1952.
2. Islomov D. Moziydan sado. (Monografiya).-T.: "Exstremum press", 2015.
3. Islomov D. Doira san'ati darg'alari.(Monografiya).-T.: "Fan va texnologiya", 2019.
4. D.Islomov. Maxsus cholg'u. O'quv qo'llanma. Toshkent-2020